

## AYOLLARDA ALLOPETSIYA KASALLIGINING UCHRASHI VA DAVOLASH USULLARI

Ilmiy rahbar: **Djalilova Sojida Hamrayevna**

Tibbiy psixolog (PhD)

**Egamberganova Sevinch Faxriddin qizi**

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

„Beauty Aesthetics” yo‘nalishi 4-kurs

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ayollarda uchraydigan allopetsiya kasalligi va davolash usullari haqida ma'lumot berilgan. Ayollarda allopetsiya (soch to'kilishi) ko'pincha genetik, gormonal o'zgarishlar, stress yoki sog'liq muammolariga bog'liq bo'lib, turli shakllarda namoyon bo'ladi. Ushbu kasallikni davolashda minoksidil, kortikosteroidlar, kabi tibbiy preparatlar, shuningdek, PRP terapiyasi qo'llanilishi mumkin. Tabiiy usullar sifatida tuzli, shakarli skrablar, aloe vera kabi o'simliklardan foydalanish mumkin. Soch sog'lig'ini yaxshilash uchun, shuningdek, muntazam massaj, stressni boshqarish va vitaminlar bilan boyitilgan sog'lom ovqatlanish muhim hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** polikistoz, minoksidil, menopauza, androgen allopetsiya, vitamin

Allopetsiya (alopecia) — sochning to'liq yoki qisman yo'qolishi bo'lib, bu holat ko'plab sabablar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, masalan, genetik omillar, stress, yuzaga olib chiqadi.<sup>[1]</sup> Ayollarda allopetsiya kasalligi ko'proq uchraydi, chunki bu kasallik turli xil fiziologik o'zgarishlar va stress faktorlari bilan o'rtacha bog'liq bo'lishi mumkin. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ayollarning 79 foizi yoshi bilan ular soch to'kilishining ko'payishi muammosiga duch kelishadi. Odatda, bir kishi kuniga 100 tagacha sochni yo'qotadi va ko'proq soch to'kilishi patologiya hisoblanadi.<sup>[1]</sup>

Allopetsyaning turlari:

1. **Androgenetik allopetsiya:** Bu soch to'kilishining eng keng tarqalgan turi bo'lib, u genetik omillar bilan bog'liq. Ayollarda bu holat ko'pincha menopauza yoki gormonal o'zgarishlar davrida yuzaga keladi.



2. ***Allopecia areata***: Bu kasallik immun tizimi soch follikulalarining hujum qilishi bilan bog'liq. Natijada, sochlarning o'zgarishsiz to'kilishi kuzatiladi



3. ***Telogen effluvium***: Bu stress yoki organizmning boshqa katta o'zgarishlariga javoban yuzaga keladigan vaqtincha soch to'kilishidir.



4. ***Scarring alopecia***: Soch follikulalari doimiy ravishda shikastlanib, sochlarning yo'qolishiga olib keladi.



### Allopetsiyaning sabablari:

- Genetika: Androgenetik allopetsiya ayollarda genetik omillar bilan bog'liq bo'lib, bu sochlarning noziklashishi va to'kilishiga olib keladi.
- Gormonal o'zgarishlar: Menopauza, homiladorlik yoki tug'ruqdan keyin o'zgarishlar gormonal balansni o'zgartiradi va bu allopetsiyaga olib kelishi mumkin. Menopauza davrida soch to'klishi ko'plab ayollarda uchraydigan muammo bo'lib, bu gormonlar darajasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Menopauza — bu ayollarda menstruatsiya to'xtashi va reproduktiv tizimning funktsiyalarining tugashi bilan tavsiflanadigan tabiiy jarayon. Ushbu jarayonda gormonlarning darajasi pasayadi.
- Stress: Stress soch to'kilishini keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, kuchli psixologik yoki jismoniy stresslar organizmning normal ishlashiga ta'sir qiladi.
- Ozuqa moddalari yetishmasligi: Temir, vitamin D, biotin yoki sink kabi ozuqa moddalarining yetishmasligi soch to'kilishiga olib kelishi mumkin.
- Tibbiy kasalliklar: Ba'zi kasalliklar, masalan, qandli diabet, tiroid bezining ishlashidagi muammolar yoki autoimmun kasalliklar allopetsiyaga sabab bo'lishi mumkin.[2] Allopetsiyani davolash juda murakkab jarayondir. Asab va endokrin

tizimlarning funksiyalari, ovqat hazm qilish trakti,jigar, buyraklar, funksiyalarining buzilishi ham alopetsyaning rivojlanishiga olib keladi.[2]

### Davolash usullari:

Allopetsyaning davolash usullari kasallikning turiga, sababiga va darajasiga bog'liq bo'ladi. Quyidagi usullar ko'pincha samarali bo'ladi:

#### 1. Medikamentoz davolash:

- Minoksidil: Bu dori preparati, soch follikulalarining faolligini oshirib, sochning o'sishini rag'batlantiradi.

- Spironolakton: Androgenetik allopetsiyada gormonlar bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish uchun ishlatiladi.

- Kortikosteroidlar: Alopecia areata kabi kasalliklar uchun immun tizimining haddan tashqari faoliyatini kamaytirish uchun qo'llaniladi.

2. Plazma boyitilgan terapiya (PRP): Bu davolashda bemorning o'z qonidan olinadigan plazma soch folikulalarini stimulyatsiya qilish uchun ishlatiladi.

3. Soch transplantatsiyasi: Jiddiy allopetsiya hollarda sochlarni qayta ekish operatsiyasi samarali usul bo'lishi mumkin.

4. Xalq tabobati: Ba'zi ayollar tabiiy usullarni, masalan, aloe vera, kokos yog'i, soch maskalari va boshqalarni qo'llashni afzal ko'rishadi. Ammo bu usullar ko'pincha vaqtinchalik yordam beradi va ilmiy tasdiqlanishi zarur.

5. Ozuqa moddalarini qo'llash: Vitaminlar va minerallarni, masalan, biotin, vitamin D va temirni qo'llash, sochlarning o'sishini qo'llab-quvvatlashi mumkin.

6.[3]Tashqi tomondan qo'llash uchun qizil qalampir nastoykasi va kanakunjut moyi tavsiya etiladi.[3]

Ayollarda allopetsiya turli sabablar tufayli yuzaga kelishi mumkin, va uni davolashda individual yondashuv zarur. Kasallikning turi va og'irligiga qarab, turli usullarni qo'llash kerak. **Shifokor bilan maslahatlashish va to'g'ri davolash rejasi tuzish muhimdir.**

Foydalanilgan adabiyotlar



1.Д.К.НАЖМУТДИНОВА, к.м.н., доцент, Т.В.ТАХА, к.м.н., РГМУ, Москва

Алопеция: диагностика и лечение

2.Olsen E.A., Messenger A.G., Shapiro J., et al. Evaluation and treatment of male and female pattern hair loss. // J. Am. Acad. Dermatol.— 2005.— Vol. 52, №2.— P. 301—311.

3. Клиническая дерматовенерология в 2-х томах. Под ред.Ю.К.Скрипкина, Ю.С.Бутова.—М: ГЭОТАР-Медиа, 2009.—т. 1.

